

Date: 27th June-2025

ALISHER NAVOIY G'AZALLARI MISOLIDA UMUMTURKIY SO'ZLARNING
QO'LLANILISH TARKIBI

Rustamova Sanobar Murodjon qizi

Buxoro davlat universiteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada g'azal mulkinging sultoni, buyuk alloma, turkiy she'riyatni yuksak pog'onaga olib chiqqan shoir Alisher Navoiyning bir nechta g'azallari misolida umumturkiy so'zlarning qo'llanilish tarkibi borasida mulohazalar olib boriladi.

Kalit so'zlar: Devon, "Xazoyin ul-maoniy", qiyosiy jadval, umumiy ko'rsatkich.

KIRISH. Buyuk mutafakkir, she'riyat mulkinging sultoni Navoiy ijodi bamisoli cheksiz bir ummon, ushbu ummonga qancha chuqurroq sho'ng'isangiz shuncha ko'p inju terasiz. Shu sababdan ham Navoiy asarlari mana 6 asrdan buyon o'z qiymatini, betakrorligini yo'qotmagan. Navoiy asarlarini qanchalik ko'p o'qigan sari, o'rgangan sari, shuncha ko'p hayratga tushadi kishi.

Buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir, davlat arbobi Nizomiddin Mir Alisher 1441-yilning 9-fevralida Hirotda tug'ildi. Alisher Navoiyning ota tomondan bobosi Amir Temurning Umar Shayx ismli o'g'li bilan ko'kaldosh (emikdosh) bo'lib, keyinchalik Umar Shayx va Shohruxning xizmatida bo'lgan. Otasi G'iyosiddin Bahodir esa Abulqosim Boburning yaqinlaridan; mamlakatni idora etishda ishtirok etgan. Onasi Qobul amirzodalaridan Shayx Abusaid Changning qizi. Alisher Navoiyning bolaligi Shohrux hukmronligining so'nggi yillariga to'g'ri kelgan. U temuriyzodalar, xususan bo'lajak podshoh Husayn Boyqaro bilan birga tarbiyalangan. 4 yoshida maktabga borib, tez savod chiqarib, turkiy va forsiy tildagi she'rlarni o'qib, yod ola boshlagan. O'zbek tili bilan bir qatorda forsiy tilni ham mukammal egallagan. 1447-yil Taf shahrida Alisher mashhur "Zafarnoma" tarixiy asari muallifi, shoir Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi. Bu uchrashuv Alisherda yorqin iz qoldiradi. U she'riyatga g'oyat qiziqdi, Sharq adabiyotini qunt bilan o'rgandi. Oila muhiti bolaligidayoq unda adabiyotga zo'r havas tug'dirgan edi. Tog'alari Mirsaid – Kobuliy, Muhammad Ali -G'aribiy yetuk shoir edilar. Alisher Navoiylar uyida shoirlar tez-tez to'planishib, mushoira qilishar, adabiyot va san'at haqida suhbatlashar edilar.

Alisher Navoiyning ijodi ulkan. Olti dostonining hajmi 60 000ga yaqin misrani tashkil etadi. 1472-yil fevral oyida Husayn Boyqaro uni "amir"(vazir)likka qo'ydi. Buyuk shoir "Amiri kabir" (ulug' amir), "amirul muqarrab" (podshoga eng yaqin amir) unvonlariga musharraf bo'ldi. Uning vazirlik yillari Hirotda obodonlik avj olgan, madaniyat gullab-yashnagan davr bo'ldi. Ulug' amir o'zi bosh bo'lib, suvsiz yerlarga suv chiqardi, eski ariqlarni tozalatirdi, yangi kanallar qazdirdi. Eski binolarni ta'mir qildirib, yangilarini qurdirdi. Qanchadan-qancha madrasalar, xonahoqlar soldirdi.



Date: 27th June-2025

Bu davrlarda Hirotda adabiy hayot ham rivojlandi. 1470-yillarning oxirlarida Alisher Navoiy o‘zining o‘zbek tilida yozgan she’rlaridan iborat ilk devoni – “Badoe’ ul-bidoya” (“Badiiylik ibtidosi”)ni tuzdi.

Shuni quvonch bilan aytish joizki, Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodi faqat o‘zbek adabiyotidagina emas, balki jahon adabiyotida ham salmoqli o‘ringa ega. Navoiy lirik, epik va falsafiy asarlari bilan XV asr adabiyotida chuqur iz qoldirdi. Ulug‘ shoirning asarlari hayotlik davridayoq Xitoydan tortib Kichik Osiyogacha yetib bordi va hozirda butun dunyo xalqlari ham sevib o‘qishmoqda. A. Oripov ta’biri bilan aytganda, Temur tig‘i yetmagan joyni qalam bilan oldi Alisher.

ASOSIY QISM. Buyuk mutafakkir bobomizning ijodini o‘rganar ekanmiz bu ijod ummonining naqadar chuqur ekanligiga guvoh bo‘lamiz va bu ummonga sho‘ng‘ib o‘zimiz uchun har birimiz eng foydali dur-u javohirlarni olamiz.

Quyida qiyosiy jadval asosida Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devonining “G‘aroyib us-sig‘ar” hamda “Favoyid ul- kibar” dostonlaridan o‘rin olgan 2 g‘azalida ishtirok etgan umumturkiy so‘zlarning salmog‘i qanchani tashkil etishini ko‘rib o‘tamiz.

ALIF HARFINING OFATLARINING IBTIDOSI
«G‘AROYIB»DIN

Iloho ,podshoho, kirdigoro,
Sanga ochug` nihonu oshkoro.
Sabur ismi bila qilsang tajalliy,
Qilib Namrudg`a yuz ming mudoro.
Qachonkim zohir etsang «tanzi`-ul-mulk»,
Sikandarning bo`lub mag`lubi Doro.
Yo`lung muhlik toshi yoquti ahmar,
Eshiging tiyra gardi mushki soro.
Suho bo`lsa shabistonningda toli`,
Bo`lub nuri quyoshdek olamoro.
Navoiy nafs zul motig`a qolmish,
Sen o`lmay Xizri rah chiqmoq ne, yoro?!
Qiyomatda gunohin afv etarga
Rasulingni shafi` et, kirdigoro

T/r	So`zlar	Arabch	Forsch	Umum turkiy
		a	a	
1	Iloho	+		
2	Podshoho	+		
3	Kirdikoro	+		
4	Sanga			+
5	Ochug`			+
6	Nihon	+		
7	Oshkoro	+		
8	Sabur			+



INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

International online conference.

Date: 27th June-2025

9	Ismi		+	
10	Ila			+
11	Qil			+
12	Tajalliy	+		
13	Namrud	+		
14	Yuz			+
15	Ming			+
16	Mudoro	+		
17	Zohir	+		
18	Mag`lub	+		
19	Yo`l		+	
20	Muhlik	+		
21	Eshik		+	
22	Shabiston		+	
23	Tiyra		+	
24	Toli`			+
24	Nur	+		
26	Quyosh		+	
27	Nafs	+		
28	Tosh			+
29	Bo`l			+
30	Chiq			+

SE HARFINING SAMIN GAVHARLARINING SAMARASI

«FAVOYID»DIN

Bo`ldi bexudlug`uma bodai gulgun bois,
Ani no`sh aylagali soqiyi mavzun bois.

Buki, laylivashim ollida fido qildim jon,
Bo`ldi bu qissag`a afsonai Majnun bois.

Dard tog`in qozorim tirnog` ila Shirindur,
Lek bo`ldi manga Farhodi jingarxun bois.

O`lturur xolu xatu qoshu ko`zu g`amzasi ham,
Bor anga qatlima andozadan afzun bois.

Ishq dashtida yugursam, ajab ermaski, erur
Telbaga po`ya uchun vus`ati homun bois.

Ko`zlarim yoshinikim Qulzumu Ummon etdim,
Mojarosig`a edi Dajlayu Jayxun bois.

Dema: ko`yida ul oyning nega sargardonsen,
Bo`ldi bu mehnatima gardishi gardun bois.



INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

International online conference.

Date: 27th June-2025



Nafsi nahsiyatidin chiqqay, angakim bo`lg`ay
Toli` sa`d bila baxti humoyun bois,

Gar Navoiy esa mug` dayrida rasvo, tong emas,
Ne uchun bo`lmasun omodadurur chun bois.

T/r	So`zlar	Arabcha	Forscha	Umum turkiy
1	Soqiy	+		
2	Behudlug`		+	
3	Boda	+		
4	Gulgun		+	
5	Bois		+	
6	Ani			+
7	No`sh		+	
8	Ayla			+
9	Bu			+
10	Laylivash	+		
11	Fido		+	
12	Jon		+	
13	Qissa		+	
14	Afsona		+	
15	Dard	+		
16	Tog`			+
17	Tirnog`		+	
18	Manga			+
19	Jigarxun		+	
20	O`ltur			+
21	Xol			+
22	Xat		+	
23	Qosh			+
24	Ko`z			+
25	G`amza	+		
26	Qatl	+		
27	Andoza		+	
28	Afzun		+	
29	Ishq		+	
30	Dasht			+
31	Telba		+	
32	Yosh			+

Biz quyidagi jadvallar asosida Navoiyning 2ta ga`zalini olib, ularni tilar bo`yicha bo`lib chiqdik va shuni aniqladikki, bu ikki g`azal doirasida turkiy so`zlar 35%, arabiy so`zlar 30% , forsiy so`zlar 33% ni tashkil etar ekan.

XULOSA. Xulosa o`rnida shuni aytish mumkinki, Alisher Navoiy dahosining merosini o`rganish bizga olam-olam xazinalar sandig`ini ochishimizda katta yordam beradi. Shuni quvonch bilan aytish joizki, Alisher Navoiyning boy va serqirra ijodi faqat

INTRODUCTION OF NEW INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN EDUCATION OF PEDAGOGY AND PSYCHOLOGY.

International online conference.

Date: 27th June-2025

o‘zbek adabiyotidagina emas, balki jahon adabiyotida ham salmoqli o‘ringa ega. Navoiy lirik, epik va falsafiy asarlari bilan XV asr adabiyotida chuqur iz qoldirdi. Ulug‘ shoirning asarlari hayotlik davridayoq Xitoydan tortib Kichik Osiyogacha yetib bordi va hozirda butun dunyo xalqlari ham sevib o‘qishmoqda. A. Oripov ta’biri bilan aytganda, Temur tig‘i yetmagan joyni qalam bilan oldi Alisher.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Eshonqulov H. Navoiyshunoslik. Lirik asarlarni sharhlah.-Toshkent:Fan ziyosi, 2023.-11b.
2. Navoiy asarlar lug`ati. Tuzuvchi. S.Sharafiddinov.-Toshkent:Akadem nashr,2023.-163b.
3. Navoiy A.Mukammal asarlar to`plami. 20 jildlik, 5-jild.-Toshkent: Fan, 1992.-377b.

